

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11095047>

## ODAM PARAZITI LESHMANIYANING INSON ORGANIZMIGA SALBIY TA'SIRI

**Alisherov Temur Alisher o'g'li**

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Gistologiya va tibbiy biologiya kafedrası assistenti, TTA qoshidagi

Biotibbiyot tadqiqotlar markazi TTA-KU-hamkorligidagi ilmiy

tadqiqot markazi ilmiy xodimi

E-mail: [temur.alisherov1992@mail.ru](mailto:temur.alisherov1992@mail.ru)

**Shodmanov Baxtiyor Baxromaliyevich**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Gistologiya va tibbiy biologiyankafedrası assistenti,

TTA qoshidagi Biotibbiyot tadqiqotlar markazi TTA-KU-hamkorligidagi ilmiy

tadqiqot markazi ilmiy xodimi

E-mail: [baxtiyor.shodmanov1992@gmail.com](mailto:baxtiyor.shodmanov1992@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu ish Leyshmaniya turidagi parazitlarning inson organizmidagi patogen ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Leyshmanioz - bu surunkali va potentsial ravishda hayot uchun xavfli kasallik bo'lib, Leyshmaniya parazitlari tomonidan kelib chiqadi va asosan chivinlar orqali yuqadi. Dunyo bo'ylab ko'plab tropik va subtropik mintaqalarda, shuningdek, o'rtacha iqlim zonalarining ba'zi joylarida uchraydi. Kasallikning klinik ko'rinishlari teri, shilliq qavatlar va ichki organlarning zararlanishini o'z ichiga oladi. Ishda Leyshmaniya ning inson immuniteti bilan o'zaro munosabatlari, patogenez, klinik simptomatologiya va davolash usullari batafsil yoritiladi. Xususan, teri lishmaniozining rivojlanish bosqichlari, shuningdek, visseral Leyshmanioz (kalazar) kabi jiddiy shakllarining klinik kechishi tahlil qilinadi. Zamonaviy diagnostika usullarining taqqoslanishi va samaraliligi ham ko'rib chiqiladi, jumladan, mikroskopik, serologik va molekulyar-biologik testlar. Davolash bo'yicha so'nggi yutuqlari hamda profilaktika va epidemiyaga qarshi kurashishda qo'llaniladigan asosiy strategiyalar muhokama qilinadi. Maqola tibbiyot sohasidagi mutaxassislarga, shuningdek, soxaga qiziqqan mutaxassis bo'lmagan o'quvchilarga ham tegishli bo'lib, kasallik profilaktikasi va davolashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliyotlar bilan tanishtirishga mo'ljallangan.*

**Kalit so'zlar:** *Leyshmanioz, teri leyshmanioz, ashxabod yarasi, profilaktikasi, yuqish yo'llari.*

Leyshmaniya – bu leshmanioz deb ataladigan kasallikni keltirib chiqaradigan parazit sodda hayvondir.

Leyshmaniya

Tip: Sodda hayvonlar tipi (Protozoa)

Sinf: Xivchinlilar sinfi (Flagellata)

Oila: Tripanosomalar oilasi (Trypanosomatidae)

Avlod: Leshmaniyalar avlodi (Leishmania)


Turi: *Leishmania tropica*, *Leishmania Donovan*

Leyshmaniyalar mayda parazitlar bo‘lib, kattaligi 2-4 mkm gacha boradigan, tanasi oval yoki yumaloq shakldagi pedikula bilan qoplangan. Romanovskiy-Gimza usuli bilan bo‘yalganda tanasida yadro va yadro rangiga bo‘yalgan-blefaroplast aniqlanadi. Leyshmaniyaning xivchini o‘tib chiqqan tanacha bazal tanacha deyiladi. Leyshmaniyaning hazm organlari yo‘q u osmotik yo‘l bilan oziqlanadi.

Xivchililar sinfiga o‘xshab uzunasiga bo‘linib ko‘payadi. Leyshmaniyalar morfologik jihatdan ikki xil shaklda hayot kechiradi: hujayra ichida-xivchinsiz, tashuvchilarning tanasida va suniy usulda o‘stirilganda xivchinli ko‘rinishda yashaydi. Leyshmaniyalar hayotining xivchinli davri leptomonad davr deb ataladi.

Bu parazitlar odam va xayvonlarga kasal qum chivinlari chaqishi orqali yuqadi. Leyshmaniozning bir necha xil turlari mavjud bo‘lib, ular kasallikning turli shakllarini, jumladan teri leshmaniozini, shilliq teri leshmaniozini va visseral leshmaniozini keltirib chiqarishi mumkin. Leyshmanioz teri, shilliq pardalar va ichki organlarga tasir qilishi mumkin bo‘lgan hayot uchun xavfli kasallikdir.

Leyshmaniyaning ikki turi odamda parazitlik qiladi: *Leishmania tropica* va *Leishmania donovani*. *L. tropica* -teri leshmaniozining chaqiruvchisi, rus vrachi P.F.Borovskiy tomonidan kashf etilgan. Teri leshmaniozi Markaziy Osiyo va Kavkaz ortida keng tarqalgan. Parazit teri hujayralarida yashaydi va terida yaralar hosil qiladi. Kasallikning bir yil va undan ortiqroq chuziladigan surunkali shakli (ashxabod yarasi), 3-oydan 6-oygacha davom etadigan o‘tkir shakli (penda yarasi) farqlanadi. Ashxabod yarasini *Leishmania tropica minor*, penda yarasini esa *Leishmania tropica tropica* keltirib chiqaradi. Leyshmaniyalar teri hujayralarida parazitlik qilib, kasallikning yashirin davri 3-8 oy davom etadi. Iskaptoparlar orqali chaqqan joy shishib qoladi, so‘ngra yara hosil bo‘lib ma’lum vaqtdan so‘ng bu yara chandiqqa aylanadi.



*Leishmania donovani* – Hind kalaazari deb ataladigan umumiy yoki visseral leishmaniozning qo‘zg‘atuvchisidir. Kasallik manbasi Hindiston, Sharqiy Xitoy va O‘rta yer dengizi sohillarida mavjud.

Leishmaniyalar morfologik jihatdan deyarli bir biridan farq qilmaydi, Vistseral leishmaniozning chaqiruvchisi odam tanasida retikulo-endotelial organlar -jigar, taloq, limfa tugunlari, ko‘mik endoteliy hujayralari sitoplazmasida parazitlik qilib yashaydi va ko‘payadi. Leishmaniyalar ko‘payganda bitta hujayradagi parazitlar soni 100-200 tagacha yetadi. Hujayra yemirilgandan keyin ular limfa orqali qonga o‘tib, yangi hujayralarga kirib oladi va ularning yemirilishiga sababchi bo‘ladi. Leishmanioz transmissive kasalliklarga kirib, uni qonso‘rar mayda hasharotlar phlebotomus avlodiga kiruvchi iskabtoparlar tarqatadi.

Iskabtoparlar kasal odam qoni bilan oziqlanganda leshmaniyalar hashoratning hazm yo‘liga otadi. U yerda parazit leptomonad ko‘rinishiga o‘tadi. Shundan so‘ng parazit yuqtirgan hasharot sog‘lom odam qonini so‘rganda unga parazitlarni yuqtiradi.

Vistseral leishmanioz (VL) bilan kasallangan inson agar o‘z vaqtida glyukantim yoki amb izom dori vositalari bilan bemorlar davolanmasa kasallikning salbiy oqibatlari kelib chiqishi mumkin. VL inkubatsion davri o‘rtacha uch oyni tashkil etadi. Visseral leishmaniozda tana haroratining to‘satdan 39-40 C ko‘tarilishi bilan xarakterlanib, surunkali davom etishi bilan kichadi. Limfoid-makrofagal tizimini zararlanishi oqibatida, isitmaning uzoq davomiyligi, taloq va jigarining kattalashishi, kam qonlik bilan xarakterlanadi. Bazi hollarda VL-kasalligi sekinlik bilan boshlanib, organizmda xolsizlik, ishtaxaning pasayishi, terining ransizlashishi, toshmalarni paydo bo‘lishi va leykopeniya bilan xarakterlanadi.

Kasallikning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bu- jigar va taloqni kattalashishidir. Taxminan 10% bemorlarda jigar sirrozi va portal gipertenziyasi kuzatiladi. VL so‘ngi kasallik bosqichlarida shishlar paydo bo‘lib, holdan toyish (kaxeksiya) va pigmentni ko‘payishi (kala-azar «qora kasallik» deyiladi).

Kasallikni birinchi alomatlari boshlanganda shifokorga zudlik bilan murojaat qilish orqali kasallikni o'z vaqtida va to'g'ri davolash choralari ko'riladi. Maxsus davolash kursidan keyin bemor 1 yil davomida dispanser nazoratida bo'ladi. Kasallikka chalingan bemorlarda mustahkam immunitet qoladi. Kasallik 2 - 10% qaytalanishi mumkin.

### **Profilaktikasi.**

Kasallikning belgilari Leishmania turiga va kasallikning shakliga qarab farq qilishi mumkin, ammo teri yaralari, isitma, vazn yo'qotish va organlarning shikastlanishi bo'lishi mumkin. Leyshmaniozni davolash odatda antiparazitik dorilarni, masalan, besh valentli surma birikmalarini yoki miltefozinni o'z ichiga oladi. Profilaktik choralar asosan kasallik keng tarqalgan endemik o'choqlarda iskabtopar chivinlarni hamda kasallik manbai bo'lgan kemiruvchi hayvonlarni yo'qotishga qaratiladi. Kasallikning oldini olish hasharotlarga qarshi vositalarni qo'llash, uzun yeng va shim kiyish va insektitsid bilan ishlov berilgan to'shakda uxlash orqali qum chivinlari chaqishi oldini oladi. Leyshmaniozga qarshi profilaktikchora-tadbirlar quyidagicha o'tkaziladi: kemiruvchi hayvonlar (masalan, sichqonlar) kovaklarini xlorpikrin, sianidlar bilan zaharlash usulida yo'qotish; chivinlarni – ular yashaydigan turg'un suv hovuzlarni insektitsidlar(DDT, tiofos, geksoxloran) bilan zaharlash; Odamlarni himoya qilish uchun maxsus vositalarni (pashshaxona, maxsus malhamlar chinnigulyog'i, dimetilftalat, ayrim efir yog'lar) ishlatish. Leyshmanioz - bu e'tibordan chetda qolgan tropik kasallik bo'lib, u birinchi navbatda rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa sanitariya va uy-joy sharoitlari yomon bo'lgan hududlarda aholiga ta'sir qiladi. Ushbu kasallik bilan kurashish uchun yangi davolash usullari va nazorat strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Biologiya professor Xalikov va boshq, Toshkent 1996.y
2. Biologiya professor Xalikov P.X. va boshq. Toshkent 2005.y
3. Tibbiy biologiya va genetika Xalikov P.X., Qurbonov A.Q., Daminov A.O., Tarinova M.V Toshkent -2019. 2022.y
4. Biologiya "Tibbiy biologiya va genetika " K.N. Nishonboyev ., Hamidov J.H., Toshkent 2005.y
5. "Rukovodstvo po med. Parazitologii" Olimxujayeva P.R Juravleva R.A. Toshkent 2004.y
6. Leyshmaniozlar - Yomon yara – Ensiklopediya